

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA NUTQ MADANIYATI

Xolmirzayeva Zulfizar*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat**o'zbek tili va adabiyoti universitetining**Tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili) fakulteti**402- guruh talabasi zulfizarxolmirzayeva2707@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillarida nutq madaniyati tushunchasi, uning shakllanish omillari hamda madaniy qadriyatlarning muloqot jarayoniga ta'siri qiyosiy tahlil qilingan. Nutq madaniyati faqatgina til vositalarining to'g'ri qo'llanishigina emas, balki ijtimoiy muhitga mos tarzda fikrni ifodalash madaniyatini ham o'z ichiga oladi. Ingliz madaniyatida individualizm va aniqlik ustun bo'lsa, o'zbek madaniyatida kollektivlik, hurmat, muomala yumshoqligi va ma'naviy qadriyatlarga tayangan muloqot shakllangan. Tadqiqot o'zbek va ingliz nutq uslublarini qiyoslash orqali madaniyatlararo muloqotda uchrashi mumkin bo'lgan tushunmovchilikni oldini olishga yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *nutq madaniyati, kommunikatsiya, ijtimoiy tuzilish, kollektivizm, individualizm, non-verbal muloqot.*

Nutq madaniyati, nutq odobi — 1) og'zaki va yozma adabiy til me'yorlari (talaffuz, urg'u, so'z qo'llash, grammatika, uslubshunoslik qoidalari)ni egallash, shuningdek, turli aloqa-aralashuv sharoitlarida tilning tasviriy vositalaridan nutqning maqsad va mazmuniga mos ravishda foydalanish mahorati; 2) tilshunoslikning tilni madaniyat quroli sifatida mukammallashtirish maqsadida me'yorlashtirish (tartibga solish) muammo larini o'rganuvchi bo'limi. G'arb tilshunosligida umumiy ma'noda "til madaniyati" termini ham qo'llanadi.

Har bir xalqning kundalik muloqotda foydalanadigan so'zlashuv tili uning madaniyatidan ajralgan holda mavjud bo'la olmaydi. Ularning o'ziga xos nutq odobi, so'zlashish uslubi, suhbatdoshga murojaat shakllari, rad etish va ma'qullash usullari

uning dunyoqarashi, qadriyatlari va an'alaridan kelib chiqadi. Shu sababli nutq madaniyati har bir xalqda turlicha shakllanadi. Misol uchun o'zbek xalqi kollektivism, hurmat, mehmondo'stlik, hamdardlik, samimiylik, ibo-hayo, odob-axloq kabi qadriyatlarni yuqori qo'yadi. Ingliz madaniyati esa Evropaning individualistik tamoyillari asosida shakllanib, unda shaxsiy erkinlik, mustaqillik, mas'uliyat, vaqtni qadrlash va to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish odati ustuvordir.

Nutq madaniyati lingvistika, madaniyatshunoslik va pragmalingsvistika sohasi bilan bog'liq bo'lib, so'zlovchining tilni mazmunli, ravon, o'rinli va estetik jihatdan to'g'ri qo'llay olish qobiliyatini bildiradi. R.Q. Abduvaliyev "Nutq madaniyati tilning normativ imkoniyatlaridan oqilona foydalanish san'atidir" deb ta'kidlagan. Nutq madaniyatining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan omillaridan biri bu tarixiy tajriba va madaniy urf-odatlaridir. O'zbek nutq madaniyati Markaziy Osiyo qadimiy an'alariga asoslangan bo'lib, mehmon kelganda xushmuomala bo'lish, kattalarga salom berish kabi an'alar bir necha asrlar mobaynida avloddan-avlodga o'tib kelyotgan odatdir. Shuningdek, ijtimoiy tuzilish (oilalar, jamiyat munosabatlari) ham nutq madaniyatida muhim hisoblanadi. O'zbek oilalarida katta yoshlarga hurmat va ehtirom ko'rsatish, e'zozlash nutqda o'z ifodasini topadi. Shu bilan birga, oilada kichiklarga samimiy munosabat, mehribonlik va tarbiyaviy ohang nutq madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi.

Ingliz jamiyatida esa shaxsiy tenglik va mustaqillik g'oyalari asosiy o'rin tutadi. Shu sababli ingliz nutqida yosh, mavqe yoki jinsga qarab murojaat shakllari farqlanmaydi. "You" so'zi barcha vaziyatlarda bir xil ishlatiladi. Bu nutq madaniyatining ijtimoiy tuzilish bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Xalqning dunyoqarashi, ta'lim va savodlilik darajasi ham nutqqa ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri bo'lib, ta'lim tizimi nutq madaniyatini oshiradi. O'zbekistonda ta'lim milliy qadriyatlar asosida, ijtimoiy va madaniy normativlarni o'rgatish orqali nutq madaniyatini oshiradi. Masalan, maktablarda o'quvchilarga hurmat va odob-axloq tamoyillari asosida nutqdan foydalanish o'rgatiladi. AQSh va Britaniyada esa ta'lim

tizimi tanqidiy fikrlash, bahslashish va mustaqil fikr bildirish ko'nikmalarini rivojlantirishga urg'u beriladi. Bu esa nutq madaniyatining shakllanishida shaxsiy fikrni aniq, qisqa va to'g'ridan-to'g'ri yetkazishga xizmat qiladi. Din va ma'naviy an'analarning ham nutqqa ta'siri sezilarli darajada. O'zbek madaniyatida islom dini mehribon va sabrli bo'lishni ta'kidlaydi va bu nutqda o'z ifodasini topadi. Ingliz madaniyati esa protestant axloqi mas'uliyat va to'g'rilikni qo'llab-quvvatlaydi. Umuman olganda, o'zbek madaniyatida nutq odobi oila va jamiyatlardagi hurmat tamoyillariga tayansa, ingliz madaniyatida esa til ko'proq shaxsiy fikrni to'g'ri yetkazish vositasi hisoblanib, muloqot jarayonida hissiy bezaklar kamroq ishlatiladi.

Shu bilan birgalikda, har bir tilning o'ziga xosligini korsatuvchi so'zlari iboralari boladi. Misol uchun salomlashish, tanishish va suhbat boshlash jarayonida ingliz tilida "Nice to meet you" iborasi keng qo'llanadi, o'zbek tilida esa unga mos "Siz bilan tanishganimdan xursandman" tarzidagi ibora ishlatiladi. Taklif bildirish holatida ingliz tilidagidek "Would you like...?" ifodasi o'zbek tilida "Xohlaysizmi...?" tarzida, kechirim so'rash va murojaat qilishda esa "Excuse me" iborasi "Meni kechirasiz", "Ijozat bering", "Menga yordam bera olasizmi?" kabi shakllarda qo'llanadi. O'zbek tilida murojaat qilinayotgan odamning yoshiga, mavqeiga, shaxsiy masofa darajasiga qarab so'z shakllari tanlanadi. Masalan: "siz" — hurmat ifodasi yoki "sen" — yaqinlik, do'stona munosabatni bildiradi. Ingliz tilida esa "you" so'zi tabaqalanmagan: kichikga ham, kattaga ham bir xil murojaat qilinadi. Bu jamiyatdagi tenglik bilan bog'liq. Rad etish va tanqid qilishda inglizlarda rad etish ochiq va qisqa bo'lishi mumkin: "No, I disagree." O'zbek tilida esa odatda yumshatilgan shakl ishlatiladi: "Balki boshqa vaqtga qoldirsak..." "Yaxshi fikr, lekin..." bu asosan insonni ranjitmaslik uchun ishlatiladi. Non-verbal muloqot jarayonida biz inglizlarda shaxsiy masofa uzoq, ovoz past, ko'zga tik qarash odatiy holat ekanligini ko'rishimiz mumkin. O'zbeklarda suhbat paytida masofa yaqin, ohang hissiy, ba'zan imo-ishoralar faol bo'lishi ko'zga tashlanadi.

Nutq madaniyatini o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki pedagogika, madaniyatshunoslik va pragmatolingvistika nuqtai nazaridan ham muhimdir. U chet

tilini o'rganishda tilning grammatika va leksik qoidalarini bilishdan tashqari, tilning madaniy kontekstini tushunish, muloqotda to'g'ri strategiyalarni tanlash va kommunikativ xatolarning oldini olishga yordam beradi. Madaniyatlararo kommunikatsiyada nutq madaniyati farqlari tushunilmasa, nutqiy xatolar, noqulay vaziyatlar va madaniy tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli, nutq madaniyati o'qituvchilar, tarjimonlar va muloqot ishtirokchilari uchun muhimdir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek tillaridagi nutq madaniyati hamda muloqot shakllari har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlari bilan uzviy bog'liqdir. Muloqot jarayonida qo'llaniladigan iboralar, murojaat shakllari, fikr bildirish va rad etish usullari tilning faqat grammatik tizimini emas, balki jamiyatda shakllangan axloqiy-me'yoriy qarashlarni ham aks ettiradi. Ingliz tilida aniqlik, qisqalik va tenglikka asoslangan nutq ustun bo'lsa, o'zbek tilida hurmat, muloyimlik va suhbatdoshning hissiy holatini inobatga olish muhim hisoblanadi. Ushbu farqlarni anglash chet tilini o'rganish jarayonida ham, madaniyatlararo muloqotda ham to'g'ri nutqiy uslubni tanlashga, kommunikativ xatolarning oldini olishga va samarali muloqotni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduvaliyev R.Q. Nutq madaniyati asoslari. — Toshkent: O'qituvchi, 2010.
2. Sultonov U. Madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyasi. — Toshkent: TDPU, 2021.
3. Karimova N. O'zbek muomala madaniyati va nutq odobi. — Toshkent: Fan, 2015.
4. Brown P., Levinson S. Politeness and Language Use. — Cambridge University Press, 1987.